O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E. Po'latov
2023 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № FD-18-28
2023 yil "29" 08

LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohas: 410 000 – Biznes va boshqaruv

Magistratura mutaxassisligi: 70410401 – Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

SAMARQAND – 2023

8 – mavzu: Loyihaviy moliyalashtirishda lizing kreditidan foydalanish

Lizingning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va funksiyalari. O'zbekistonda lizing munosabatlarining me'yoriy-huquqiy asoslari. Lizingning boshqa moliyalashtirish shakllariga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari. Lizing turlari. Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda lizing kreditidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Lizing krediti asosida loyihaviy moliyalashtirishning jahon tajribalari. Xalqaro moliya institutlarining lizing munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rni.

9 – mavzu: Davlat-xususiy sektor hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari

Investitsiya faoliyatida davlat-xususiy sektor hamkorligining yuzaga kelishi va rivojlanishi. Davlatning xususiy biznes bilan hamkorlik munosabatlari mazmun-mohiyati. Davlat-xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan loyihalarning tashkiliy-huquqiy tuzilishi va uning asoslari. Konsessiya to'g'risidagi qonunga asosan tanlov (tender) jarayonlari. Tanlov hujjatlarini tayyorlash va tanlov qatnashchilari takliflarini baholash mezonlari. Kommunal, transport va energetika infratuzilmasi sohasida davlat-xususiy sektor hamkorligini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar.

10 – mavzu: Davlat-xususiy sektor hamkorligida loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi

Davlat-xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish manbalari. Davlat-xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan loyihalarga pul mablag'larini jalb qilish va qarzlami qaytarishning moliyaviy mexanizmlari. Davlat-xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy vositalari: subsidiya, kapitalga ulush kiritish, qarz, davlat imtiyozli kreditlari, Hukumatning suboordinatsiyalashgan qarzlari va boshqalar. Davlat xususiy sektor hamkorligida loyihalarni moliyalashtirish modellarini ishlab chiqish. Davlat xususiy sektor hamkorligida loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini qo'llash.

11- mavzu: Davlat-xususiy sektor hamkorligining xorij tajribasi

Davlat va tadbirkorlik tuzilmalari hamkorligining asosiy shakllari va ularning xususiyatlari (konsessiya, mahsulot taqsimotiga oid bitim, ijara, boshqaruv va turli xizmatlarga asoslangan shartnoma munosabatlari, davlat buyurtmalari, qo'shma korxonalar tashkil qilish va boshqalar). Xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sektor hamkorligini boshqarishning model va mexanizmlari. Davlat-xususiy sektor hamkorligi faoliyatini boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha maxsus muassasalami tashkil etishning xorij tajribasi. Iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida (transport, energetika, kommunal xo'jaligi, mudofaa sanoati, ijtimoiy sohalar) davlat-xususiy sektor hamkorligining rivojlanish miqyosi va dinamikasi. Xorijiy davlatlarda davlat- xususiy sektor hamkorligida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihalar tahlili. Jahon

amaliyotida davlat-xususiy sektor hamkorligida amalga oshmay qolgan loyihalar tahlili (to'xtatilgan, keyinga qoldirilgan, vaqtincha to'xtatib qo'yilgan).

12-mavzu: Investitsiya faoliyatida risklar va ularning tasniflanishi

Investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklar: ularning mazmuni va mohiyati. Investitsiya faoliyatida risk turlari va ularning belgilari bo'yicha tasniflanishi. Loyihaviy risklar va ularning turkumlanishi. Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklar va ularning xususiyatlari.

13-mavzu: Loyihalarni amalga oshirishda risklarni tahlil qilish va baholash

Risklarni tahlil qilishning mazmun-mohiyati. Investitsion loyihalarda risklarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish va baholash. Investitsiya loyihalarida risklarni tahlil qilish va baholash usullari: loyiha sezgirligini tahlil qilish; loyihaning zararsizlik nuqtasini aniqlash; loyiha barqarorligini aniqlash; investitsiya loyihasini baholashning matematik usullari; risklarni tahlil qilish va baholashning ssenariylar usuli va boshqalar. Risklarni tahlil qilish va baholashning xorij tajribalari.

14-mavzu: Loyihaviy moliyalashtirishda risklar va ularni boshqarish

Loyihaviy moliyalashtirish yuqori riskli operatsiya sifatida. Loyihaviy risklarni boshqarish tamoyillari. Loyihaviy risklarni boshqarish usullari va vositalari. Investitsiya loyihasiga ta'sir qiluvchi risklarning ta'sir doirasini pasaytirish yoMlari. Loyihaviy risklarni boshqarish sug'urtaning o'mi.

15- mavzu. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda monitoring olib borish

Investitsiya loyihasining amalga oshirilishi yuzasidan loyiha ishtirokchilari tomonidan monitoring olib borish va uning asosiy funksiyalari. Yetakchi bank ishtirokchi banklar bilan birgalikda qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyati, kreditdan maqsadli foydalanish, garov ta'minoti holati va kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoringni olib borish xususiyatlari. Qurilishni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar bo'yicha qurilish ob'ektida bajarilgan ishlar hajmining nazorat o'lchovini amalga oshirish. Hisoblangan foizlar va kredit qoldig'i bo'yicha majburiyatlami bajarish yuzasidan monitoring olib borish. Yetakchi bank tomonidan muammoli kreditlar paydo boMishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar.

16-mavzu: O'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari

0'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshirish uchun mavjud shart-sharoitlar. Milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlari. Investitsiyalarni loyihaviy

moliyalashtirishda davlatning xususiy sektor bilan hamkorligi. 0'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishda moliya-kredit muassasalarining muassasalarining rolini oshirish. Loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish yuzasidan amaldagi me'yoriy hujjatlami takomillashtirish

III. Amaliy mashg'ulotlarlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlap uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Loyihaviy moliyalashtirish" fanining perdmeti, maqsadi va vazifalari;
2. Loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etishning nazariy asoslari;
3. loyihaviy moliyalashtirish uchun loyihalarni tanlab olish va baholash;
4. Loyihaviy moliyalashtirish usullari va shakllari;
5. Loyihaviy moliyalashtirish bo'yicha xalqaro moliya institutlar tajribasi;
6. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashning nazariy va huquqiy asoslari;
7. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash mexanizmi;
8. Loyihaviy moliyalashtirishda lizing kreditidan foydalanish;
9. Davlat-xususiy sektor hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari;
10. Davlat-xususiy sektor hamkorligida loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi;
11. Davlat-xususiy sektor hamkorligining xorij tajribasi;
12. Investitsiya faoliyatida risklar va ularning tasniflanishi;
13. Loyihalarni amalga oshirishda risklarni tahlil qilish va baholash;
14. Loyihaviy moliyalashtirishda risklar va ularni boshqarish;
15. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda monitoring olib borish;
16. 0'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turli tarmoqlarda loyihalami moliyalashtirish tarkibini takomillashtirish (aniq bir tarmoq tanlanishi kerak).
2. Ma'lum bir tarmoqda loyihaviy moliyalashtirish tarkibining xususiyatlari (aniq bir tarmoq tanlanishi kerak).
3. Ma'lum bir tarmoqda qoniqarsiz tarzda amalga oshirilgan loyihaviy moliyalashtirish tahlili (aniq bir tarmoq tanlanishi kerak).
4. Ma'lum bir tarmoqda ijobiy tarzda amalga oshirilgan loyihaviy moliyalashtirish tahlili (aniq bir tarmoq tanlanishi kerak).
5. 0'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish masalalari.
6. 0'zbekistonda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish uchun davlat va nodavlat institutlarini shakllantirish muammolari.
7. 0'zbekistonning Xalqaro savdo tashkiloti (XST) a'zo bo'lishining loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishga ta'siri.
8. Globalizitsiya jarayonlarining loyihaviy moliyalashtirish usullarining rivojlanishga ta'siri.

	9. Xalqaro moliya institutlarining loyihaviy moliyalashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalaridan foydalanish istiqbollari. 10. O‘zbekistonda ko‘chmas mulk ob’ektlari qurilishi loyihalari uchun loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish muammolari. 11. Uy - joy qurilishi va mintaqaviy loyihalarni moliyalashtirishda loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish muammolari. 12. Investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlat dasturlari tahlili.
4	**V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o’zlashtirish natijasida talaba: - loyihaviy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati; loyihaviy moliyalashtirish tamoyillari; loyihaviy moliyalashtirish ishtirokchilari va ularning funksiyalari; loyihaviy moliyalashtirishda banklarning roli; loyihaviy moliyalashtirishda investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash metodologiyasi; loyiha risklarini aniqlash va sug‘urtalash; iqtisodiyot tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirish xususiyatlari; loyihaviy moliyalashtirish sxemalari; investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi;*** - loyihaviy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati va tamoyillari va xususiyatlarini; loyihaviy moliyalashtirish ishtirokchilari va ularning funksiyalarini; loyihaviy moliyalashtirishda banklarning rolini, xalqaro moliya institutlarining investitsiya loyihalari bo‘yicha kredit yo'nalishlarini; loyihaviy moliyalashtirishda: regress huquqisiz; to‘liq regress va cheklangan regress huquqi bilan kreditlashni; parallel va bosqichma-bosqich loyihaviy moliyalashtirishni; loyihaviy moliyalashtirish sxemalarini ishlab chiqish va uni moliyalashtirish manbalarini aniqlashni; sindikatli kreditlash ishtirokchilari va ularning funksiyalarini; investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash texnologiyasini; investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash bahosini shakllanishini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** - investitsiya loyihalari samaradorligini baholash; loyiha risklarini aniqlash va ularni boshqarish; iqtisodiyotn ing turli tarmoqlarida investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish; loyihaviy moliyalashtirish sxemalarini qo‘llash; investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash ***ko'nikmalariga ega bo‘lisi kerak.***
5.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blits-so‘rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar namoyishi; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.
7	**VIII. Fan bo'yicha kurs ishi** "Loyihaviy moliyalashtirish" fani bo'yicha o'quv rejaga muvofiq **kurs ishi** yozish rejalashtirilgan. "Loyihaviy moliyalashtirish" fanidan kurs ishi muayayn mavzu bo'yicha umumiy yaxlitlikka ega ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ish hisoblanadi. Kurs ishi innovatsion iqtisodiyotga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi. Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi: • muammoni bibliografik tahlil qilish; • chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish; • to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish; • taklif va tavsiyalarni asoslab berish; • fikrni ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilish; • kurs ishini qo'yilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirish. *Kurs ishi yozish uchun tavsiya etiladigan mavzular:* 1. Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. 2. Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda monitoringni tashkil etish. 3. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari. 4 .0'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyali kreditlashni rivojlantirish muammolari. 5. Loyihaviy moliyalashtirishning jahon tajribasi va uni 0'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. 6. Loyihaviy moliyalashtirishni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida rivojlantirish. 7. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda loyihaviy risklar va ularni boshqarish. 8. Loyihaviy moliyalashtirishda lizing kreditidan foydalanish masalalari. 9. Loyihaviy moliyalashtirish bo'yicha Xalqaro moliya institutlar tajribasi. 10. Iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida (transport, energetika, communal xo'jaligi, mudofaa sanoati, ijtimoiy sohalar) davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish.
7.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Zoyirov L., Asamxodjayeva Sh., Yunusova S. Investitsiya. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2019. - 652 b. 2. Zayirov L., Xanova N. Investisii. Uchebnik. - T.: Iqtisod-moliya, 2019. 3. Nasirov E.I., Asamxodjaeva Sh.Sh. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod -moliya, 2020.

	4. Проектное финансирование и анализ: учеб. пособие для бакалавриата и магистратуры / М. А. Федотова, И.А. Никонова, Н.А. Лысова. - М.: Юрайт, 2019. - 144 с. 5. Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Ruzibayeva N.X. va boshq. Investitsiya. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 480 b. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. 7. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ 598-sonli qonuni. 25.12.2019 y. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 20 iyun, PQ-3794-sonli Qarori. **Axborot manbalari:** www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
7.	Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2023-yil 28 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-18-28
8.	**Fan/modul uchun ma'sul:** A.Bektemirov – SamISI "Investitsiya va innovatsiyalar" kafedrasi professori N.X. Ruzibayeva – SamISI "Investitsiya va innovasiyalar" kafedrasi dots.v.b.
9.	**Taqrizchilar:** **N.A. Ibragimov** – Samarqand viloyat hokimining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchisi; **S.S. Aliyeva** – SamISI "Moliya" kafedrasi dotsenti, i.f.n.